



## THE IMPORTANCE OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF ANCESTORS IN THE FORMATION OF KNOWLEDGE AND ECOLOGICAL CULTURE

**Umida Nurmatova**

*Associate Professor*

*Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute*

*Uzbekistan, Samarkand*

**Zumrad Agzamova**

*Master's Student*

*Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute*

*Uzbekistan, Samarkand*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** knowledge, ecology, ecological culture, environment, ecological awareness, ecological education, ecological value, ancestral experience, human.

**Received:** 09.05.25

**Accepted:** 11.05.25

**Published:** 13.05.25

**Abstract:** This article highlights that ecological culture is a feeling that is consciously formed, that we must develop it with practical actions throughout our lives, and that we must adhere to it throughout our lives. Also, the role and importance of the rich spiritual heritage left by our ancestors in the process of forming knowledge and ecological culture is analyzed.

### BILIM VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANISHIDA AJDODLAR MA'NAVIY MEROSINING AHAMIYATI

**Umida Nurmatova**

*Dotsent*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

*O'zbekiston, Samarqand*

**Zumrad Agzamova**

*Magistratura talabasi*

*O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti*

*O'zbekiston, Samarqand*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** bilim, ekologiya, ekologik madaniyat, atrof-muhit, ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik qadriyat, ajdodlar tajribasi, inson.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, ekologik madaniyat ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg'u ekanligi, uni butun hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz va umrimiz mobaynida unga amal

qilishimiz lozimligi yoritilgan. Shuningdek, bilim va ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy merosning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

## ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЗНАНИЙ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

**Умидада Нурматова**

*Доцент*

*Узбекско-Финского педагогического институт*

*Узбекистан, Самарканда*

**Зумрад Агзамова**

*Магистрант*

*Узбекско-Финского педагогического институт*

*Узбекистан, Самарканда*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** знания, экология, экологическая культура, окружающая среда, экологическое сознание, экологическое образование, экологическая ценность, родовой опыт, человек.

**Аннотация:** В статье подчеркивается, что экологическая культура — это осознанно формируемое чувство, которое мы должны развивать практическими действиями на протяжении всей жизни и придерживаться его на протяжении всей жизни. Также анализируется роль и значение богатого духовного наследия, оставленного нашими предками, в процессе формирования знаний и экологической культуры.

### KIRISH

XXI asr insoniyat uchun ekologik muammolar bilan yuzma-yuz kelayotgan davrdir. Bunday sharoitda ekologik madaniyatni shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ajdodlarimiz tomonidan yaratib ketilgan boy ma'naviy merosga murojaat qilish, undagi tabiatga nisbatan ehtirom, mehr-muhabbat va mas'uliyatni tarannum etuvchi g'oyalarni o'rganish va zamonaviy ekologik ta'limga tadbiq etish zarurdir.

Mamlakatimizda ekologik madaniyat va barqaror ekologik vaziyatni yaratish bilan bog'liq vazifalar yechimini toppish davlat siyosatining ustivor yo'naliishlaridan biriga aylangan. "Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin" [1:392]. Bugungi kunda vujudga kelgan ekologik vaziyat tabiatdan foydalanish va tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishda yosh avlodning bilim va ekologik madaniyatini yuksaltirishda ajdodlar ma'naviy merosi muhim ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Ekologik madaniyat bu - atrof-

muhitga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishimiz, uni asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazishimizdir. Tabiat va atrof-muhitni asrash oilada, maktabda, mahallada, har bir jamoada shakllanib boradigan qadriyatlardan biridir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda tabiiy resurslardan foydalanishning huquqiy me’yori va miqdorini belgilangan. Shunisi quvonarlik, ushbu talablarga rioya etilmagan holatlarda huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llash masalalari bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solingan. Xususan, Asosiy qonunimizning 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”, 68-moddasida esa “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simplik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”[2:11] degan konstitutsiyaviy-huquqiy normalar belgilangan. Bularning barchasi mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolarning tabiiy resurslarga nisbatan ekologik huquqiy bilimlarni singdirish uni yuksaltirishni talab qiladi.

## MATERIALLAR VA METODLAR

Xalqimiz qadriyatida tabiatga bo‘lgan ehtirom beqiyosdir. Yurtimizda tabiatni asrab-avaylash an’anasi insoniyat tarixi qadar qadimiy sanaladi. Bizga ma’lumki, Markaziy Osiyoda ekomadaniyat haqida tushunchalar dastlab bundan qariyb uch ming yil oldin zardushtiylik talimotida shakllangan bo‘lib, biz bu haqdagi ma’lumotlarni zardushtiylik talimotining bosh kitobi hisoblangan “Avesto” kitobidan olishimiz mumkin. Zardushtiylik dinida ham ekologik madaniyatning ilk kurtaklari shakllangan [3:56]. Xususan, Fitrat tabiat, atrof-muhit, bir so‘z bilan aytganda, ekologik madaniyat va bilimlarni ham mukammal egallagan adibdir. U jug‘rofiya – bu yer yuzi va undagi aholini o‘rganish ilmi ekanini, islam ulamolari uni yunonlardan o‘rganganini qayd etadi. Fitrat islam mutafakkirlari jug‘rofiya ilmi rivoji uchun sayohatga chiqib, ma’lumot to‘plagani va bu fanni nodir asarlar bilan boyitganini aytadi.

Fitrat: “Aql – Alloh tomonidan berilgan, insonlarni ikki dunyo saodatiga yetaklovchi eng buyuk ne’mat”, deb ta’riflaydi. Odamzod tabiat, uning hodisalari va jonzotlar oldida ancha ojiz bo‘lganini, dastavval yirtqich hayvonlar hujumidan, iqlim o‘zgarishlaridan, ochlik va suvsizlikdan, tabiiy ofatlardan hamisha qo‘rqib og‘ir hayot kechirganini, keyinchalik bu qiyinchiliklarni Alloh bergen aql bilan birin-ketin yengib borganini aytadi [4:34].

Insonda tabiat hodisalariga munosabat va tabiatni anglash, asrab-avaylash tufayli ekologik madaniyat va bilimlar shakllanib borganini ta’kidlaydi. Fitrat ko‘kalamzorlashgan joylar va obod mahallalarda tozalikni saqlash zarurligini, u salomatlikning muhim sharti ekanini ta’kidlaydi. Tozalik kattalar uchun qay darajada shart bo‘lsa, yosh avlod uchun undan ham zarurroq ekanini, chunki ular kattalarga qaraganda kasalga tez chalinuvchan bo‘lishini, bolaning tozaligiga chaqaloqligidan e’tibor berish lozimligini, uni ifloslikdan hazar qilishga o‘rgatish kerakligini ta’kidlaydi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Insoniyat tarixidan bizga ma'lumki, u o'z taraqqiyotining ilk bosqichlarida tabiatga bo'ysungan. Har qanday tabiat hodisalaridan cho'chib, ularni bartaraf etolmasdi, chunki u hali tabiat qonunlarini anglay olmasdi. Bugungi kunga kelib insoniyat ham aqlan, ham ma'nан yetildi. Tabiatni o'rgandi, bildi, anglay oldi, qurdi, yaratdi, uning hodisalarini o'ziga bo'ysundirdi.

Butun umri mobaynida odamzot doimo tabiat qo'ynida faoliyat ko'rsatadi, u bilan uzlyuksiz munosabatda bo'ladi. Bu faoliyat oqilona tashkil etilmasa va u bilan munosabat to'g'ri o'rnatilmasa, inson o'zi va tabiat uchun muammolar keltirib chiqaradi. Mazkur muammolardan biri ekologik muammodir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish shu kunning eng muhim ekologik muammo hisoblanadi va bu muammo hamma aholi hamda ular yashayotgan davlatlar manfaatini o'z ichiga qamrab oladi. Bu muammo hayotning barcha muammolaridan farq qilgan holda, yer yuzidagi jonzotlar, shu jumladan, eng avvalo insonlar salomatligini saqlashni ko'zda tutadi.

Ekologik madaniyatga ega shaxs atrof muhitga munosabatda mas'uliyatni his etadi. Bu borada ega bo'lgan bilim, ko'nikmalarini ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayangan holda hayotga tatbiq etadi.

Bizga ma'lumki, tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bog'liqligi qadimdan ma'lum. Antik davrda yashagan faylasuflarning asarlarida hayvonlarning turli instinktlari, baliqlar va qushlarning migratsiyalari, o'simliklarning tashqi qiyofasi, tuproq va iqlim shiroitlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. VII-VIII asrlardagi ekologik ma'lumotlar tirik organizmlarni ayrim guruhlarini o'rganishga qaratilgandir. O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar tabiat fanlarini rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, shuningdek, tabiatni e'zozlash haqidagi qimmatli fikrlarni aytganlar.

O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy falsaviy fikrining eng yirik va mashhur vakillaridan Abu Nasr Forobiyning ilmiy falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlarida tabiatshunoslik ilmi, ilmiy – amaliy faoliyat va xunarmandchilik masalalari yoritilgan. Forobiyning "Insoniyatning boshlanishi haqidagi kitob", "Hayvon a'zolari to'g'risida kitob" nomli asarlarida, shuningdek, "Odam a'zolarining tuzilishi" kabi asarlarida odam va hayvonlar ayrim a'zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o'xshashligi va farqlari keltirilgan. Forobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratiladigan sun'iy narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratilgan, degan xulosaga keladi. Inson omilining katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholagan.

Buyuk alloma Muhammad Muso al-Xorazmiy 847-yilda “Kitob sur’at al-arz” nomli asarini yozgan. Unda dunyo okeanlari, quruqlikdagi qit’alar, qutblar, ekvatorlar, cho’llar, tog‘lar, daryo va dengizlar, ko’llar, o’rmonlar va undagi o’simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, boshqa tabiiy resurslar – Yerning asosiy boyliklari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Abu Rayxon Beruniy koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan narsa va hodisalarning o’zaro ta’siri bilan tushuntirishga urinadi. Olim yerdagi ba’zi hodisalarni quyoshning ta’siri bilan izohlaydi. Uningcha, inson tabiat qoidalariga rioya qilgan xolda borlijni ilmiy ravishda to‘g’ri o’rgana oladi. Beruniy fikricha, yerdagi o’simlik va hayvonlarning yashashi uchun zarur imkoniyatlар cheklangandir [5:17]. Lekin o’simlik va hayvonlar cheksiz ko‘payishga intiladi va shu maqsadda kurashadi. “Ekin va nasl qoldirish bilan dunyo to‘lib boraveradi”. Garchi dunyo cheklangan bo‘lsada, kunlar o’tishi bilan bu ikki o’sish natijasida ko‘payish cheklanmaydi. Agarda o’simliklardan yoki jonvorlardan biror xilini o’sishiga sharoit bo‘lmay, o’sishdan to‘xtasa ham boshqalarda bu axvol bo‘lmaydi. Ular birdaniga paydo bo‘lib, birdaniga yo‘qolib ketmaydi. Balki ularning biri yo‘qolsa ham, u o‘z o‘xshashini qoldirib ketadi.

Beruniy asarlarida o’simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo‘jalikdagi ahamiyati haqida ma’lumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari asosan uning “Saydana”, “Minerologiya”, “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarida o‘z aksini topgan. “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar” asarida o’simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda o‘zgarishi misollari bilan tushintirilgan.

Beruniy yer qiyofasini o‘zgarishi o’simlik va hayvonot dunyosining o‘zgarishiga, tirik organizmlarning turli xayoti yer tarixi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak deb xisoblaydi. Qumni kovlab, uni orasidan chig‘onoqni topish mumkin, deydi alloma. Buning sababi shuki, bu qumlar qachonlardir okean tubi bo‘lgan, deb xulosa qiladi. Beruniy “Saydana” nomli asarida 1116 tur dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o’simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 107 tasi esa minerallardan olinishi bayon etilgan.

Shunday qilib, ajdodlarimiz ilmni eng oliy qadriyat sifatida e’zozlaganlar. Ilm va ma’rifat orqali nafaqat jamiyat, balki tabiatga ham ongli munosabat shakllangan. Bugungi ekologik inqirozga qarshi kurashda aynan ilmiy asoslangan yondashuvlar, ekologik ta’lim dasturlari va atrof-muhitga nisbatan ongli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, tarixiy-madaniy meros asosida ishlab chiqiladigan zamonaviy o‘quv dasturlari ekologik madaniyatni shakllantirishda asosiy vositaga aylanishi mumkin.

## XULOSA.

Ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy meros, ayniqsa, tabiatga bo‘lgan mehr, ehtiyyotkorlik va mas’uliyat tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlar bugungi ekologik muammolarni

bartaraf etish, ekologik madaniyat va ongni shakllantirishda muhim manba bo‘la oladi. Shu bois, ekologik ta’lim va tarbiyaga tarixiy-ma’naviy merosni joriy etish orqali jamiyatda barqaror ekologik madaniyatni shakllantirish mumkin.

Ekologik madaniyatni shakllantirish bu avvalo – ajdodlar ma’naviy merosi negizida avloddan avlodga ekologik madaniyat, tajriba va ideallar orqli o‘tib kelayotgan qadriyat hisoblanadi. Insoniyat jamiyati paydo bo‘lishi asosida, avvalo, odamning tabiatga munosabati yotadi. Zero, har qanday ijtimoiy munosabat tabbiiy makonda sodir bo‘ladi va uning mavjudligi, muayyan darajada shakllangan “moddiylashuv” shakli – madaniyatni taqozo etadi. Ekologik madaniyat ham umumbashariy madaniyatning uzviy bir qismi. Ekologik madaniyat ongli ravishda atrofimizni o‘rab turgan barcha muhitga nisbatan bizning ijobiy munosabatimiz, ya’ni tabiat va atrof-muhitni asrashni oilada, mahallada, mакtabda va jamoalarda shakllanib boradigan qadriyatlarimizdir. Ekologik madaniyat – bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg‘u, va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021.-B.392.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.30.04.2024.11-b
3. Hasanov S, Avesto – ma’naviyatimiz sarchashmasi, T., 2001.56-b
4. Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: „Ma’naviyat“, 2001.34-b
5. Glick, Thomas F.; Livesey, Steven John; Wallis, Faith. Medieval Science, Technology, and Medicine: An Encyclopedia. Routledge, 2005.p-17.
6. Allabergenova D.K. O‘rta Osiyolik allomalarning tabiat va ekologiya haqidagi fikrlari va hozirgi zamon. 2018. - №3 (18). <https://moluch.ru/th/4/archive/94/2665/> (data obrasheniya: 21.04.2025).
7. Berry, J. W. A Cultural Ecology of Social Behavior. “Advances in Experimental Social Psychology”. Ed. Berkowitz, Leonard. Vol. 12: Academic Press, 1979. 177– 206. Print.
8. Head, Lesley, and Jennifer Atchison. “Cultural Ecology: Emerging Human-Plant Geographies”. Progress in Human Geography (2008). Print.
9. Sutton, Mark Q, and E.N. Anderson. “Introduction to Cultural Ecology”. Second Edition ed. Lanham, Maryland: Altamira Press, 2013. Print.
10. Xoshimov M. O‘zbekistonning ekologik turizmi. - Samarqand, 2012 4.